

BOSH KELISHUV № _____**(“Revolver” ochiq liniyalı kredit ajratish bo‘yicha)**

_____ yil « _____ » _____ 20 _____

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda “Kreditor” deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ -sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/BXO boshlig‘i _____ bir tarafdān va (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi) _____ ikkinchi tarafdān, ushbu bitimni (bundan buyon matnda bitim deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. BITIM PREDMETI

1.1. Mazkur bitimga muvofiq kreditor qarz oluvchiga 24 oy muddatga kredit taqdim qilish uchun liniya ochish majburiyatini, qarz oluvchi esa liniya miqdoridan kelib chiqib, bank kredit siyosati talablari doirasida ta‘minot bilan ta‘minlash, liniya bo‘yicha olinishi nazarda tutilgan kreditlarni bosh kelishuvga asosan tuzilgan kredit shartnomada (keyingi o‘rinlarda kredit shartnoma) nazarda tutilgan muddatlarda qaytarish, ular bo‘yicha hisoblangan foizlar, bank xizmat haqini to‘lash, shuningdek, kredit shartnomaga asosan yuzaga keladigan boshqa to‘lovlar to‘lash, majburiyatlarni bajaradi va huquqlardan foydalanadi.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur bitimga asosan qarz oluvchi bitimning 3.1-bandida ko‘rsatilgan miqdorgacha aylanma mablag‘larini to‘ldirishi uchun kredit olishi mumkin.

2.2. Ajratiladigan kredit mazkur bitimga asosan qiymatidan kelib chiqib, liniya doirasida har birining muddati 12 oygacha bo‘lgan muddatga, kredit shartnoma tuzish orqali taqdim qilinadi.

2.3. Bosh kelishuvga asosan o‘rnatilgan limit doirasida kredit liniyalaridan foydalanish muddati shartnoma imzolangan sanadan boshlab bosh kelishuv tugashiga 6 oy qolguncha, ya‘ni _____ yilgacha amal qiladi. Bu muddat tugaganidan so‘ng qarz oluvchi kredit liniyalari (transh) ochish huquqini yo‘qotadi.

2.4. Kredit shartnomalar asosida har bir transh alohida ssuda hisob raqamlar ochish orqali amalga oshiriladi hamda qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan to‘lov topshiriqnomasi asosida pul o‘tkazish yo‘li bilan ajratiladi. Bunda bosh kelishuv doirasida kredit shartnomaga asosan ajratiladigan kreditlarning so‘ndirish muddati bosh kelishuvning tugash muddatidan ortib ketmasligi shart.

2.5. Bosh kelishuvga asosan belgilangan limit doirasida dastlabki ajratilgan kredit (transh) to‘liq so‘ndirilmaguncha navbatdagi kredit ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.6. Kredit qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

2.7. Kredit mablag‘lari bankning o‘z mablag‘lari/xorijiy liniya mablag‘lari (tagini chizish

orqali belgilanadi) hisobidan beriladi.

2.8. Kredit shartnomalarga asosan ajratilgan kredit mablag'larini qarz oluvchi tomonidan quyidagi maqsadlarda foydalanadi: _____

2.9. Kreditni ajratish qreditor tomonidan qarz oluvchi taqdim qilgan shartnomada (xizmat ko'rsatish, oldi-sotdi, yetkazib berish va h.k.) ko'rsatilgan hisobvaraqa o'tkazib berish orqali amalga oshiriladi. Bunda shartnomada ko'rsatilgan barcha shartlarga va kreditni qaytarishni ta'minlash maqsadida tuzilgan boshqa barcha shartnomalarga rioya etiladi. Kreditni ajratish sanasi kredit summasini qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan shartnomada (xizmat ko'rsatish, oldi-sotdi, yetkazib berish, chek va h.k.) ko'rsatilgan hisobvarag'iga o'tkazib berish sanasi bo'lib hisoblanadi. Agar ochiq liniya shartnoma bo'lsa, qarz oluvchida kredit mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'lganda ochilgan liniya limitiga mos miqdorda kreditdan foydalanadi.

2.10. Kreditor kredit shartnoma imzolanganidan so'ng 60 kalendar kuni davomida kreditni ajratishni o'z zimmasiga oladi. Ko'rsatilgan ajratish muddati o'tganidan so'ng qarz oluvchining kreditni olish huquqi va kreditorning uni ajratishga oid majburiyati tugagan hisoblanadi.

2.11. Qarz oluvchi kreditor tomonidan taqdim etilgan kreditdan quyidagi maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- a) qarz oluvchining muddati o'tgan majburiyatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan uchinchi shaxslar orqali) to'lash,
- b) uchinchi shaxslarga qarzlarni taqdim etish (nobank moliya-kredit tashkilotlari bundan mustasno) va uchinchi shaxslarning qarzlarni to'lash;
- c) qimorxonalar tashkil etish;
- d) amaldagi qonun hujjatlari va bank kredit siyosatiga asosan taqiqlangan boshqa barcha maqsadlarga.

2.12. Qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun qarz oluvchi va/yoki uchinchi shaxslar quyidagi ta'minotlarni taqdim etadi:

2.13. Bosh kelishuvga asosan tuzilgan kredit shartnoma mazkur kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.14. Bosh kelishuv qoidalari mazkur shartnomaga asosan tuzilgan kredit shartnomasiga nisbatan to'liq hajmda qo'llaniladi. Bunda bosh kelishuv hamda bosh kelishuvga asosan tuzilgan kredit shartnoma qoidalari o'rtasida ziddiyat vujudga kelgan taqdirda, bosh kelishuv qoidalari ustunroq kuchga ega bo'ladi.

3. BITIM BAHOSI

3.1. Bitimga asosan liniya miqdori _____ hisobidan _____ ni tashkil qiladi.

3.2. Har bir beriladigan kredit miqdori va bahosi kredit shartnomaga asosan belgilanadi.

4. TASDIQLASH VA KAFOLATLAR BERISH

- 4.1. Qarz oluvchi yuridik shaxs – tadbirkorlik subyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro‘yxatdan o‘tkazilgan, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy layoqatga ega.
- 4.2. Qarz oluvchi kreditorga taqdim etgan kredit olish bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyliги, ma‘lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to‘g‘riligini kafolatlaydi.
- 4.3. Qarz oluvchi mazkur bitim tuzilayotgan sanaga qadar bo‘lgan va kreditor tomonidan mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi majburiyatlari haqidagi ma‘lumotlarni kreditorga taqdim etadi.
- 4.4. Qarz oluvchi bitim bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan va kreditorga ma‘lum qilmagan sud ishlarida da’vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etmaydi.
- 4.5. Bitim tuzayotgan qarz oluvchi xato fikrlar, yolg‘on, zo‘ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og‘ir holatlarga to‘g‘ri kelib qolishi ta’sirida emas.
- 4.6. Tasdiqlash va kafolatlar berishga qarz oluvchi to‘liq hajmda amal qilishi lozim. Bitimda ko‘zda tutilgan tasdiqlash va kafolatlar berishga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda kreditor qarz oluvchiga kredit taqdim etishdan bosh tortishga haqli.
- 4.7. Qarz oluvchi bilan aloqa bog‘lash usuli: mazkur shartnomaning XV bobida ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).
- 4.8. Kreditor bilan aloqa bog‘lash usuli: mazkur shartnomaning XV bobida ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

5. QARZ OLUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 5.1.1 garov ta’minoti yuzasidan baholovchi va sug‘urta kompaniyasini o‘z ixtiyoriga asosan tanlash;
- 5.1.2 kreditdan foydalanish, uni so‘ndirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha kreditorning mansabdor shaxslariga murojaat qilish;
- 5.1.3 bitim va kredit shartnomalarni imzo qo‘ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o‘zi bilan olib ketish;
- 5.1.4 bitim yoki kredit shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag‘lari olingunga qadar bo‘lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish;
- 5.1.5 istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz kreditni to‘liq yoki qisman muddatidan oldin so‘ndirish;
- 5.1.6 qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so‘ndirilishi munosabati bilan kreditning qolgan asosiy tani uchun qayta yangi grafik shakllantirishni talab qilish. Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo‘lgan kreditni qaytarish jadvali o‘z kuchini yo‘qotadi.
- 5.1.7 kredit ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to‘g‘risida kreditordan maslahatlar olish;

5.1.8 kreditordan bitimda belgilangan shartlar asosida belgilangan miqdorda kredit mablag'ini o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;

5.1.9 kreditor tomonidan bitimda ko'zda tutilgan kredit uzrli sabablarsiz yoki kechiktirib ajratilgani uchun neustoyka to'lashni talab qilish;

5.1.10 kredit hisob raqamidagi aylanmalar to'g'risida ma'lumotlar olish;

5.1.11 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash.

5.2. Qarz oluvchining majburiyatlari quyidagilar:

5.2.1 ajratilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaning ajralmas qismi sifatida ilova qilingan qaytarish jadvaliga asosan to'lash;

5.2.2 ajratilgan kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish;

5.2.3 kreditni olishga va undan foydalanishga bevosita aloqador bo'lgan moliyaviy hisobotlar, shartnomalar va boshqa hujjatlar bilan kreditorning to'siqsiz tanishishiga imkon berish;

5.2.4 kreditorga to'lov muddati kelganda o'zining barcha (har qanday) hisobvaraqlaridan oldindan berilgan aksept bilan to'lov hujjati (to'lov talabnomasi yoki memorial order) orqali shartnomadan kelib chiqadigan har qanday majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini berish (neustoyka ham shular jumlasidan). Mazkur shart qarz oluvchining har qanday hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

5.2.5 o'zining mulkchilik yoki tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, ta'sischilar, boshqaruv organlaridagi tarkibiy o'zgarishlar, qayta tashkil etilishi yoki faoliyatining to'xtatilishi, shuningdek, joylashgan manzilining o'zgarishi, faoliyat yuritishi uchun ta'sir etuvchi litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarining bekor qilinganligi, amal qilish muddatlari tugaganligi, to'xtatilganligi, aloqa o'rnatishda foydalanadigan aloqa ma'lumotlari hamda aloqa usullarining o'zgarishi haqida kreditorni 10 kun avval yozma ravishda xabardor qilish;

5.2.6 o'zining moliyaviy yoki mol-mulkiga oid holatini yomonlashtiradigan, to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan faktlar, shuningdek, ko'rsatilgan holatlarni bartaraf etish uchun ko'rilayotgan choralar haqida kreditorga zudlik bilan yozma shaklda xabar berish;

5.2.7 begonalashtirilayotgan mol-mulk qiymati o'zining aktivlari balans qiymatining 25 foizdan ortiq bo'lgan va o'ziga egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk boshqa shaxsning ixtiyoriga o'tayotgani haqida kreditorni oldindan yozma shaklda xabardor qilish;

5.2.8 kreditorni ochiladigan barcha hisobvaraqlari va boshqa kredit tashkilotlaridan jalb qilinayotgan kreditlari haqida tegishli holat ro'y berishidan va/yoki tegishli harakat amalga oshirilishidan 5 ish kuni oldin xabardor qilish;

5.2.9 kreditorga balans manbalari ko'rsatilgan va tegishli ma'lumotnomalar bilan birga moliyaviy va statistik hisobotlarni muntazam ravishda taqdim etish;

5.2.10 kreditorning so'roviga ko'ra, kreditor qarz oluvchining moliyaviy holatidan kelib chiqib talab qilishi mumkin bo'lgan barcha zarur ma'lumot va hujjatlarni, kredit mablag'larini maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnoma, hisobvaraqlar)

faktura, yuk xati, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshqalar) belgilangan muddatlarda kreditorga taqdim etilishini ta'minlash, shuningdek, 5 ish kuni davomida kredit va unga hisoblangan foizlarni vaqtida va to'raligicha to'lashga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar haqida kreditorni xabardor qilish;

5.2.11 bitim va kredit shartnoma imzolangan sanadan 5 ish kunidan kechikmasdan:

- a) kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish uchun *{кўчар yoki ko'chmas mulk}*ka tegishli zarur hujjatlarni kreditorga taqdim etish yoki ularni uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilishini ta'minlash;
- b) bitim va kredit shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun garov/ipoteka haqida shartnoma tuzish yoki shartnoma tuzishni ta'minlash;
- c) bitimga asosan kredit ta'minotiga oid barcha talablarni bajarish, jumladan, kredit ta'minoti sifatida taqdim qilinayotgan mol-mulklarni (yoki mulkiy huquqlarni) kredit muddatiga sug'urta qilish, garov shartnomalarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish, vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazish hamda taqiq qo'yish yoki ta'minot sifatida kafillik taqdim qilinayotgan bo'lsa, kafillik shartnomalarini qonuniy tartibda rasmiylashtirish;
- d) ipoteka shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha barcha harakatlarni amalga oshirishda kreditorga barcha zaruriy yordamni ko'rsatish (barcha zarur hujjatlarni taqdim etish ham shu jumladan);

5.2.12 milliy valutada ajratilgan kreditlar uchun 125 foizdan, xorijiy valutada ajratilgan kreditlar uchun 130 foizdan kam bo'lmagan qiymatdagi likvidli bo'lgan ta'minot turlarini taqdim qilish. Kreditorga tomonidan monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko'ra qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan ta'minot kredit majburiyatlarini qoplashga yetarli emas deb topilgan taqdirda yetarlicha miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim qiladi hamda uni tegishli tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

5.2.13 mazkur bitim asosida xorijiy kredit liniyalari hisobidan kredit mablag'lari ajratilgan taqdirda, ushbu kredit mablag'lari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zlashtirilishi haqidagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit sifatida to'liq hajmda amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda davlat statistika hisoboti shakllarida qat'iy tartibda aks ettirish;

5.2.14 moliyalashtirilayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida mijoz tomonidan tasdiqlangan "atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar" rejasini o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini oladi;

5.2.15 kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilish majburiyatini oladi, shu jumladan:

- a) ish joyidagi xavfsizlik normalari;
- b) bolalar mehnatining yo'qligi;
- c) ishchilar bandligiga oid kamsitishlarning yo'qligi;
- d) majburiy mehnatning yo'qligi.

5.2.16 kredit mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar kredit shartnomasida kredit

ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilishini ta'minlash;

5.2.17 qarz oluvchining xorijiy valutada kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan kredit bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi. Kreditor tomonidan monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko'ra qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan ta'minot kredit majburiyatlarini qoplashga yetarli emas, deb topilgan taqdirda, yetarlicha miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim qiladi hamda uni tegishli tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

5.2.18 Qarz oluvchi o'z mablag'lari (kapitali) kamayishiga olib keladigan operatsiyalarni (dividend to'lash, ustav kapitalini kamaytirish va boshqalar) bankning tegishli roziligini olgandan so'nggina amalga oshiradi.

5.2.19 Agar xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursi oshishi natijasida taqdim etilgan ta'minot majburiyatlarni to'liq qoplash uchun yetarli emas deb topilsa, qarz oluvchi o'z majburiyatini to'liq qoplashga yetarli miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim etadi.

6. KREDITORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Kreditor quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1 kreditlash jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik holatini tekshirishga va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun qabul qilingan garov predmetining haqiqiy holatini tekshirish;

6.1.2 qarz oluvchini lozim darajada tekshirish bilan bog'liq bo'lgan to'liq yoki qisman xorijiy tilda tuzilgan hujjatlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjimasi bilan talab qilish, kreditni so'ndirish jarayonida gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar bajarilganda operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, jumladan pul mablag'lari manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yuzasidan mijozga murojaat qilish hamda taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalari taqdim qilinishini talab qilish;

6.1.3 qarz oluvchi tomonidan atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, qarz oluvchi joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha o'rganish, yuridik shaxs mijozning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda kredit ajratishni to'xtatib qo'yish;

6.1.4 bitim va kredit shartnomada ko'rsatilgan holatlarga oydinlik kiritish uchun qarz

oluvchidan har qanday ma'lumotni so'rash, tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishini talab qilish, shuningdek, boshqa harakatlarni amalga oshirish;

6.1.5 kredit ta'minotiga oid barcha talablar bajarilgach, kredit summasini ajratish;

6.1.6 tegishli to'lov muddatlari buzilganda, kredit tani, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar va boshqa to'lovlarni to'lov hujjatlari (to'lov talabnomasi, memorial order) orqali undirib olish;

6.1.7 To'lov muddati kelganida Qarz oluvchi, kafil yoki uchinchi shaxslar tomonidan kelib tushgan mavjud mablag'lar agar oylik to'lov(muddati kelgan asosiy tani va foizlar)ga yetarli bo'lgan taqdirda quyidagi ketma-ketlikda kredit qarzдорlik uchun yo'naltiriladi ya'ni:

- a) hisoblangan penyalari(neustoykalar),jarimalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- c) muddati o'tgan asosiy taniga yo'naltiradi.

6.1.8 kreditor shartnoma bo'yicha qarzдорlikni to'lash uchun qarz oluvchining hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini, shu jumladan, qarz oluvchi tomonidan bankka berilgan vakolat(oldindan berilgan aksept) asosida hisobdan chiqarilgan, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan, shu jumladan, kafillar tomonidan o'tkazib berilgan va to'lov hujjatida ko'rsatilgan to'lovning maqsadidan qat'iy nazar kelib tushgan mablag'lar kreditni qaytarish jadvali bo'yicha joriy oylik to'lovlar(muddati kelgan kredit tani va xisoblangan foizlar)ga yetarli bo'lmasa quyidagi navbatda yo'naltiriladi:

- a) birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) ikkinchi navbatda – joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;
- c) uchinchi navbatda – neustoyka (jarima, penya);
- d) to'rtinchi navbatda – kreditorning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

Mazkur bandning kichik bandlari agar qonunchilik xujjatlarida to'lovlar ketma ketligi qat'iy ko'rsatilgan hollarda, qonunchilikdagi normalarga asosan ish tutiladi.

1) agar quyidagi holatlardan biri yuz bergan taqdirda, liniya doirasida kredit taqdim qilish to'xtatiladi:

- a) qarz oluvchi mazkur shartnoma hamda kredit shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq o'z vaqtida bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmaganda;
- b) qarz oluvchining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muddati o'tgan debitorlik qarzдорliklari mavjud bo'lganda;
- c) muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarning mavjud bo'lganda;
- d) ta'minotining bozor bahosi majburiyatlarni kamida 125 foiz qoplashi uchun yetarli bo'lmaganda;
- e) kreditning maqsadsiz ishlatilganda (bunda bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'ining maqsadsiz ishlatilgan qismi muddatidan oldin qaytariladi);
- f) biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi, belgilangan pul tushumlarining biznes reja ko'rsatkichlariga muvofiq emasligi;

- g) qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
 - h) kreditor rozilgisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;
 - i) kreditor rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
 - j) ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toroj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha kreditor talabining bajarilmasligi;
 - k) kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;
 - l) kreditorga bitim va kredit shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;
 - m) kredit va unga hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;
 - n) kredit va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;
 - o) kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida shartnomaning 5.2.14 bandi talablarining buzilganligi;
 - p) kredit mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar kredit shartnomasida kredit ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan kredit mablag'i ta'minoti sifatida garov shartnomasi asosida garovga qo'yilmasligi;
 - q) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki sud tomonidan bank litsenziyasi chaqirib olinganda, ayrim bank operatsiyalari to'xtatilganda, litsenziya amal qilishi vaqtincha to'xtatilishi oqibatida vaziyatning jiddiy o'zgarishi natijasida;
- 6.1.9 Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 11.4-bandida ko'rsatilgan shartnomani jiddiy buzish holatlari sodir qilinganligi aniqlagan taqdirda, kreditor shartnomani muddatidan oldin bir tomonlama yoki sud tartibida bekor qilib, kredit qarzдорliklarini qoplash uchun undiruvni kredit ta'minotiga qaratishga haqli;
- 6.1.10 qarz oluvchi shartnomada belgilangan muddatda qarz summasini muddatida qaytarishga qodir emasligidan aniq-ravshan dalolat beruvchi holatlar aniqlanganda, kreditni taqdim etish majburiyatini bajarmaslik;
- 6.1.11 qarz oluvchi kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini iste'molchiga yetkazish;
- 6.1.12 qarz oluvchi – yakka tartibdagi tadbirkorning o'limida yoki qarz oluvchi – yuridik shaxsning qayta tuzilishida qarz oluvchining huquqiy vorisidan kredit summasini muddatidan oldin qaytarish va hisoblangan foizlarni to'lash hamda mazkur shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni amalga oshirishni talab qilish.

6.2. Kreditorning majburiyatlari:

6.2.1 qarz oluvchi tomonidan shartnomaga asosan kredit (qarz) bo'yicha qarzдорlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha garovda turgan mulkni taqiqlan bepul chiqarish va garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan kreditorning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan bepul chiqarish;

6.2.2 qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;

6.2.3 Kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelganda, qarz oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (etti) kalendar kuni davomida qarz oluvchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelganligi haqida (taqdim etilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqqan holda) xabar berish.

6.2.4 Qarz oluvchi kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' to'lagan va ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirishi va Qarz oluvchiga taqdim etilishi. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo'qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi.

6.2.5 kredit shartnomasining shartlariga qarz oluvchining huquqlarini cheklanishiga va/yoki majburiyatlarini oshirilishiga olib keluvchi o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritmaslik.

7. TOMONLARNING MAJBURIYATLARINING BAJARILISHINI TA'MINLASH

7.1 Kreditor kreditni asossiz ravishda o'z vaqtida ajratmagan taqdirda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarz oluvchiga kreditning kechiktirilgan summasidan 0,2 foiz hajmida penya to'lash. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim

7.2 Bitim doirasida kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash uchun qarz oluvchi mazkur bitimning 2.12-bandida qayd etilgan ta'minotlarni taqdim etadi yoki taqdim etilishi yuzasidan bitimlar tuzilishini ta'minlaydi.

7.3 Kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanganligi aniqlansa, maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag'i summasiga nisbatan 25 foiz miqdorida bir marotabalik jarima to'laydi.

Qarz oluvchi tomonidan olingan kredit qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda, to'lov muddati o'tgan kundan boshlab, muddati o'tgan kredit summaga nisbatan belgilangan foiz stavkasi 1,5 (bir butun o'ndan besh) barobarga oshirilgan holda

hisoblab undiriladi.

Qarz oluvchi kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan hamda ular yuzasidan muddati o'tgan qarzlar yuzaga kelgan hollarda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun bankka muddati o'tgan kredit qarzдорligiga nisbatan 0,2 foiz, muddati o'tgan foiz to'lovlariga nisbatan 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi.

7.4 Penya qarz oluvchi tomonidan muddati o'tkazib yuborilgan summadan to'lov amalga oshirilishi kerak bo'lgan kundan qarz oluvchi tomonidan muddati o'tgan majburiyat bajarilgunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.13 Neustoykalarini to'lash talabi bo'yicha kreditor unga zarar yetkazilganini isbotlashi shart emas.

6.14 Kreditor bitimda ko'zda tutilgan neustoykalar va boshqa to'lovlarni undirishni qarz oluvchining kreditorda va boshqa kredit tashkilotlarida ochilgan har qanday hisobvarag'iga to'lov talabnomasini qo'yish asosida pul mablag'larini hisobdan chiqarish orqali amalga oshirishga haqli. Qo'yilgan talabnoma mazkur bitimga asosan qarz oluvchi tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

8. BITIM BO'YICHA HUQUQLARDAN VOZ KECHISH

8.1 Kreditor kredit bo'yicha talab qilish huquqidan voz kechilgan taqdirda uchinchi shaxslarga, yuridik va moliyaviy maslahatchilarga bank sirini tashkil qiladigan, qarz oluvchi va uning operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishga haqli.

8.2 Qarz oluvchi kreditor bilan kelishmagan holda o'z huquqlaridan voz kechish va bitim bo'yicha majburiyatlarini qanday shaklda bo'lmasin uchinchi shaxslarga topshirishga, o'tkazishga haqli emas.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

9.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu bitim shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

9.2 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu bitim shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

9.3 Agar bitim taraflarida ushbu bitim shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

9.4 Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini

bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

9.5 Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini bitim shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1 Qarz oluvchining tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza va unga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida kredit shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

10.2 Qarz oluvchi kredit majburiyatlarini bajarishni ta'minlash uchun qilingan barcha xarajatlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi.

10.3 Majburiyatlarini buzgan taraf bitimda ko'zda tutilgan javobgarlikka qo'shimcha ravishda boshqa tarafa yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10.4 Qarz oluvchi bitim bo'yicha pul majburiyatlari lozim darajada bajarilishiga barcha mol-mulki, aktivlari va qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlari to'liq yoki qisman bajarilmaganida haqiqiy qarzдорlik summasini undirishga qaratilishi mumkin bo'lgan banklardagi hamma hisobvaraqlaridagi mablag'lari, shuningdek, shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan sud va boshqa xarajatlar uchun javobgar bo'lishini tasdiqlaydi va kafolat beradi.

10.5 Kredit mablag'lari hisobidan amalga oshiralayotgan halqaro tranzaksiyalar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida boshqa davlatlar qonun hujjatlari doirasida to'xtatib yoki ishga solinmay (muzlatib) qo'yilganda bank javobgar hisoblanmaydi va bu mijozni kredit majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.6 Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

10.7 Qarz oluvchining xorijiy valutada kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan kredit bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

10.8 Taraflar tomonidan bir-biriga jo'natiladigan har qanday xabarnoma, talabnoma yoki boshqa xatlar yozma shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday xabarnoma yoki xat pochta, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada ko'rsatilgan faks raqamiga yo'llangan xabarnomalar lozim darajada jo'natilgan deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtdan ko'rsatilgan manzilda oluvchi shaxs yo'qligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham jo'natilgan, deb hisoblanadi.

10.9 Bitimni bajarilishida taraflar mazkur bitim shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

10.10 Qarz oluvchi, kafil yoki garovga qo'yuvchining tashabbusi bilan garov ta'minotiga o'zgartirish kiritish, ya'ni bir garov ta'minotini boshqa garov ta'minotiga almashtirish yoki kredit ta'minotiga bir nechta garov obyektlari taqdim etilgan bo'lsa, kredit qoldig'ining qoplangan qismidan ortiq bo'lgan, yaxlit garov obyektlarini (yagona hujjatga ega bo'lgan) qisman ta'qiqdan chiqarishda bankning amaldagi tariflariga asosan bank xizmati undiriladi. (Kredit qarzдорligi to'liq so'ndirilgandagi holatlari bundan mustasno).

10.11 Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

10.12 Qarz oluvchi to'lov jadvali asosida kredit qarzдорliklari bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

11. BITIMNING KUCHGA KIRISHI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

11.1 Mazkur bitim bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, bitimning bir nusxasi bankda, ikkinchi nusxasi qarz oluvchida saqlanadi. Qarz oluvchi yoki uning vakolatli vakiliga bitim imzolangan kunda uning bitta asl nusxasi taqdim etiladi.

11.2 Bitim taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

11.3 Shartnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

11.4 Qarz oluvchi tomonidan quyidagi holatlardan hech bo'lmasa bittasiga yo'l qo'yilgan taqdirda shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi va bunda kreditor shartnomani, kredit shartnomani bir taraflama yoki sud tartibida muddatidan oldin bekor qilishi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishi mumkin:

- a) kreditning maqsadsiz ishlatilganligi (bunda kreditor tomonidan ajratilgan kredit mablag'ining maqsadsiz ishlatilgan qismi muddatidan oldin qaytariladi) yoki kredit mablag'ini maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ushbu hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan 10 kun muddat ichida kreditorga taqdim etilmasa;
- b) biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi, belgilangan pul tushumlarining biznes reja ko'rsatkichlariga muvofiq emasligi;
- c) qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini bajarilmasligi, shartnomada ko'rsatilgan tasdiqlash va kafolatlarning buzilishi;
- d) qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- e) kreditor rozilgisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;
- f) kreditor rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- g) ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toroj qilinishi,

likvidililigining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, bosharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha kreditor talabining bajarilmasligi;

h) kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki kreditor xodimlari(jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;

i) kreditorga ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;

j) kredit va unga hisoblangan foizlarni shartnoma va kredit shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;

k) kredit va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;

l) kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida shartnomaning 5.2.14 bandi talablarining buzilganligi;

m) kredit mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar kredit shartnomasida kredit ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan kredit mablag'i ta'minoti sifatida garov shartnomasi asosida garovga qo'yilmasligi.

12. MAXFIYLIK

12.1 Bitimni tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

12.2 Bitimni tuzish va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni ikkinchi taraf axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

12.3 Mazkur talab bitimning amal qilish muddatiga hamda uning muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

12.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

12.5 Kreditor o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida qarz oluvchi kreditorga qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

12.6 Qarz oluvchi kreditorga bitimda ko'rsatilgan yoki bitim tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan qarz oluvchining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur bitimga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, bitim bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kafil va yoki mulkiy kafil bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish qarz oluvchining qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo'lib hisoblanmasligiga mazkur bitimga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

13. FORS-MAJOR

13.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

13.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

13.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

14. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

14.1 Taraflar mazkur bitimni bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

14.2 O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

14.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

14.4 Kelishuv yo'li bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda kreditorning BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

15. TARAFLARNING QAYD ETISH MA'LUMOTLARI VA IMZOLARI

--	--

**«___» _____ 20___ YIL KUNGI № _____ BOSH
KELISHUVGA ASOSAN TUZILGAN _____ -
SONLI KREDIT SHARTNOMA
(Milliy va xorijiy valutada)**

(tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Kreditor" deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ filiali boshqaruvchisi/BXO boshlig'i _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi) _____ ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. _____ yil kungi № _____ bosh kelishuvga asosan kreditor _____ miqdoridagi pul mablag'lari ajratishni o'z zimmasiga oladi va qarz oluvchi olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1 Kredit qaytarishlik, to'lovlik, ta'minlanganlik, muddatlik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

2.2 Kredit mablag'lari _____ hisobidan ajratiladi.

2.3 Kreditor shartnoma imzolanganidan 60 kalendar kuni davomida kreditni ajratishni o'z zimmasiga oladi. Qarz oluvchi kredit olish xaqidagi murojaati bo'yicha, Kreditordan ijobiy qaror olgandan so'ng, ajratilishi ko'zda tutilgan kreditdan belgilangan muddat ichida foydalanmasa, kreditni olish huquqi va kreditorning uni ajratishga oid majburiyati shartnomaga muvofiq tugatiladi.

2.4 Mazkur shartnoma _____ yil kungi № _____ bosh kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.5 _____ yil kungi _____ bosh kelishuv qoidalari mazkur shartnomaga to'liq hajmda qo'llaniladi. Bunda bosh kelishuv hamda mazkur shartnoma qoidalari o'rtasida ziddiyat vujudga kelgan taqdirda, bosh kelishuv qoidalari ustunroq kuchga ega bo'ladi.

3. KREDITNI TO'LASH (QAYTARISH)

3.1 Qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq qabul qilib olingan kredit

_____ gacha qaytarilishi lozim.

3.2 Kredit asosiy tani bo'yicha imtiyozli davr _____ oyni tashkil qiladi.

3.3 Qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq ajratilgan kredit asosiy qismi va foizlar kredit ajratilgan valutada qaytarilishi lozim.

3.4 Shartnoma shartlariga muvofiq qarz oluvchi tomonidan olingan kredit u tomonidan shartnomaga ilova tariqasida belgilangan (kreditni tani va foizlarni to'lash jadvali) to'lov jadvaliga muvofiq qaytarilishi lozim. Kreditni to'lash va foizlarni to'lash jadvali shartnomaning ajralmas qismi bo'lib xisoblanadi.

3.5 Qarz oluvchi kreditorni oldindan xabardor qilgan holda kreditni to'laligicha yoki bir qismini oldindan to'lashga haqli. Bunda kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

3.6 Kreditning asosiy tani va foizlari _____ usulda to'lanadi.

4. KREDIT BO'YICHA FOIZLAR

4.1 Qarz oluvchi kreditdan foydalangani uchun kreditorga yillik _____ miqdordagi *o'zgarma/o'zgaruvchan* foizni to'laydi.

4.2 Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar yillik _____ miqdorida kredit taqdim etilgan sanadan uni to'liq to'lashgacha bo'lgan sanaga qadar kunlik hisoblanadi. Foizlarni hisoblashda joriy kalendar yilida kreditdan foydalangan haqiqiy kunlar miqdoridan kelib chiqiladi.

4.3 Qarz oluvchi tomonidan kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lov hujjatiga asosan to'lov jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda to'lanadi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1 Kreditor kreditni asossiz ravishda o'z vaqtida ajratmagan taqdirda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarz oluvchiga kreditning kechiktirilgan summasidan 0,2 foiz hajmida penya to'lash. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim;

5.2 Kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanganligi aniqlansa, maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag'i summasiga nisbatan 25 foiz miqdorida bir marotabalik jarima to'laydi.

5.3 Qarz oluvchi tomonidan olingan kredit qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda, to'lov muddati o'tgan kundan boshlab, muddati o'tgan kredit summaga nisbatan belgilangan foiz stavkasi 1,5 (bir butun o'ndan besh) barobarga oshirilgan holda hisoblab undiriladi.

Qarz oluvchi kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan hamda ular yuzasidan muddati o'tgan qarzlarni yuzaga kelgan hollarda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun bankka muddati o'tgan kredit qarzdorligiga nisbatan 0,2 foiz, muddati o'tgan foiz to'lovlariga nisbatan 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi.

Penya qarz oluvchi tomonidan muddati o'tkazib yuborilgan summadan to'lov amalga oshirilishi kerak bo'lgan kundan qarz oluvchi tomonidan muddati o'tgan majburiyat bajarilgunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4 Neustoykalarini to'lash talabi bo'yicha kreditorga zarar yetkazilganini isbotlashi shart

emas.

5.5 Kreditor shartnomada koʻzda tutilgan neustoykalar va boshqa toʻlovlarni undirishni qarz oluvchining kreditorda va boshqa kredit tashkilotlarida ochilgan har qanday hisobvaragʻiga toʻlov talabnomasini qoʻyish asosida pul mablagʻlarini hisobdan chiqarish orqali amalga oshirishga haqli. Qoʻyilgan talabnoma mazkur shartnomaga asosan qarz oluvchi tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

6. SHARTNOMANING KUCHGA KIRISHI, OʻZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

6.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega boʻlgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi bankda, ikkinchi nusxasi qarz oluvchida saqlanadi. Qarz oluvchi yoki uning vakolatli vakiliga shartnoma imzolangan kunda uning bitta asl nusxasi taqdim etiladi.

6.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar toʻliq bajarilgunga qadar amal qiladi.

6.3 Shartnomaga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yoʻli bilan hal etadilar.

7.2 Oʻzaro kelishuv imkoniyati boʻlmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida koʻrsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

7.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

7.4 Kelishuv yoʻli bilan hal etilmagan nizolar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda kreditorning BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

8. TARAFLARNING QAYD ETISH MAʼLUMOTLARI VA IMZOLARI

--	--